

KASBIY STANDART

Suv xo'jaligi avtomatlashtirilgan boshqaruv

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart Nasoslar va nasos stansiyalarini ta'mirlash va ekspluatatsiyasi bo'yicha chilangar, Nasos qurilmalari mashinisti, Meliorativ texnika operatori, Texnik meliorator, Nasos stansiyasi va gidrotexnik qurilmalar jihozlarini ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha texnik, Nasoslar va nasos stansiyalaridan foydalanish xizmati texnigi, kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

1. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

kasb – maxsus ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir faoliyat turi;

ko'nikma (mahorat) – shaxsning mehnat vazifani to'g'ri bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarini ma'lum bir sharoitda avtomatik tarzda qo'llay olishi;

mas'uliyat va mustaqillik – ko'rsatkichi xodimning umumiy kompetensiyasini belgilaydi hamda quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati;

malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

Milliy malaka tizimi – kasbiy malakalar bo'yicha mehnat bozori talabi hamda ta'lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta'lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui.

Guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi.

Sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada aniqlangan turlarini ifodalaydi. U guruh ichidagi ancha tor doiradagi faoliyatni ifodalash uchun ishlatiladi.

Kichik sinf – iqtisodiy faoliyatni eng aniqlik darajasida tasniflaydi. U sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini tavsiflaydi.

2. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" 1993yil 6maydagi 837XIIson;

"Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" 2023yil 30avgustdagi O'RQ865son Qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish choratadbirlari to'g'risida" 2019yil 17iyundagi PF-5742son;

"O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020yil 10iyuldagi PF-6024son;

"Ma'muriy islohotlar doirasida Suv xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish choratadbirlari to'g'risida" 2023yil 20iyundagi PF-101son;

"Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2019yil 9oktyabrdagi PQ-4486son;

"O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021 – 2023yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2021yil 24fevraldagi PQ-5005son;

"O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2021yil 6apreldagi PQ-5055son;

"Quyida bo'lg'inda suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish hamda suv iste'molchilari orasidagi munosabatlarni tartibga solish choratadbirlari to'g'risida" 2022yil 1martdagi PQ-145son;

"O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyati yanada takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" 2022yil 13apreldagi PQ-205son;

"Suv ta'minoti og'ir bo'lgan hududlardagi aholi tomorqa yerlari va dehqon xo'jaliklarini suv bilan kafolatli ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2022yil 12oktyabrdagi PQ-394son;

"Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan choratadbirlar to'g'risida" 2023yil 1apreldagi PQ-107son;

"Suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan sanoat va energetika tashkilotlariga texnik suv yetkazib berish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2018yil 12dekabrdagi 1008son;

"O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining "O'zsuvqurilishta'minot" respublika birlashmasi tarkibidagi "Gidromexanizatsiya" davlat unitar korxonasini tugatish to'g'risida" 2019yil 14iyundagi 497son;

"O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariyamuhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2019yil 11dekabrdagi 981son;

"Suv iste'molchilari uyushmalari faoliyatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida" 2019yil 11dekabrdagi 982son;

“Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha xarajatlarning bir qismini qoplash choratadbirlari to‘g‘risida” 2021yil 23fevraldagi 95son;

“Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv xo‘jaligi obyektlaridan foydalanish borasida davlatxususiy sheriklikni kengaytirish choratadbirlari to‘g‘risida” 2021yil 10apreldagi 199son;

“O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida” 2022yil 18iyuldagi 388son;

“Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2023yil 15avgustdagi 377son;

“O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi suv xo‘jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativhuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2023yil 27sentabrdagi 500son;

“Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 2024yil 9fevraldagi 79son;

“Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyatlar natijasida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash tartibini belgilash to‘g‘risida” 2024yil 30iyuldagi 457son;

“O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativhuquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024yil 7oktabrdagi 645son qarorlari.

3. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

masalan

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Suv xo'jaligi avtomatlashtirilgan boshqaruv	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Suv xo'jaligi avtomatlashtirilgan boshqaruv qurilmalarining to'g'ri, xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlash, ularni boshqarish, texnik xizmat ko'rsatish, joriy/profilaktik ta'mirlash ishlarini amalga oshirish.	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	A Qishloq, o'rmon va baliqchilik 01.6 Qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish va hayvonlarni ko'paytirishga yordam beradigan faoliyat va ekinlarni qayta ishlash faoliyati 01.61 O'simlik ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha faoliyat 01.61.3 Sug'orish tizimlaridan foydalanish E. Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi,chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish. 36 Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 36.0 Suvni yig'ish, tozalash va taqsimlash 36.00 Suvni yig'ish, tozalash va taqsimlash. 36.00.0 Suvni yig'ish, tozalash va taqsimlash F Qurilish 42.21 Taqsimlovchi muhandislik obyektlarini qurish 42.21.0 Taqsimlovchi muhandislik obyektlarini qurish 42.91 Suv inshootlarini qurish 42.91.0 Suv inshootlarini qurish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Uzluksiz, xavfsiz va samarali ishlashini ta'minlovchi o'rta bo'g'in texnigi va suv ta'minoti, sug'orish, kanalizatsiya va sanoat tizimlarida nasoslarning ish rejimini kuzatadi, ularni ishga tushiradi, nazorat qiladi, texnik xizmat ko'rsatadi va nosozliklarni bartaraf etadi. Mutaxassis o'z faoliyatida gidravlika, elektrtexnika, mexanika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari asoslariga tayanadi. Kasb O'zbekiston sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligi va kommunal xizmatlar tizimini barqaror yuritishda muhim ahamiyatga ega.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31324003 Suv xo'jaligi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi operatori	5
		31159022 Texnik-gidrotexnik	5
		31159002 Gidromeliorativ mashina va jihozlar texnik-mexanigi	5
		31172012 Texnik-gidrolog	5
		31324004 Suv xo'jaligi avtomatlashtirilgan obyektlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha texnik	5

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	kodi va nomi	Kodi va m/d	nomi	kodi	nomi
1	7233132 Nasoslar va nasos stansiyalarini ta'mirlash va ekspluatatsiyasi bo'yicha chilangar	A1.3	Nasos uskunalarining texnik holatini tekshirish	A1.01.3	Vizual va instrumental usulda holatini aniqlash
				A1.02.3	Uskunalarni ishga tushirishdan oldin va so'ng tekshirish
		A2.3	Nasoslarni va ularning qismlarini ta'mirlash	A2.01.3	Nosoz qismlarni aniqlab, ularni ta'mirlash yoki almashtirish
				A2.02.3	Ta'mirdan so'ng yig'ish, sozlash va ishga tushirish
				A2.03.3	Podshipnik, muhr, impeller, val, korpus, mufta kabi qismlar bilan ishlash
		A3.3	Uskunalarni montaj va demontaj qilish	A3.01.3	Texnik chizmalar asosida jihozlarni yig'ish va qismlarga ajratish
				A3.02.3	Yangi yoki ta'mirdan chiqqan nasoslarni o'rnatish
				A3.03.3	Quvurlar, armaturalar va biriktiruvchi qismlarni ulash
		A4.3	Nasos stansiyalarini ekspluatatsiya qilish	A4.01.3	Nasosni ishga tushirish, ishlash jarayonida kuzatish va to'xtatish
				A4.02.3	Oqim, bosim, harorat kabi parametrlarni doimiy nazorat qilish
				A4.03.3	Zaxira nasoslarni ulash va avtomatik tizimlarni sozlash
2	8182033 Nasos qurilmalari mashinisti	B1.3	Nasos qurilmalari va ularning yordamchi uskunalari ishga tushirish va to'xtatish	B1.01.3	Dvigatellarni ishga tushirish/to'xtatish
				B1.02.3	Bosim, daraja, harorat kabi ishchi parametrlarni belgilangan rejimga keltirish
		B2.3	Nasos stansiyalaridagi qurilmalarni texnologik rejim asosida boshqarish	B2.01.3	Zaxira nasoslarni navbatmanavbat ulash
				B2.02.3	Vana, klapan, kranlarni to'g'ri tartibda ochish/yopish
		B3.3	Yengil texnik xizmat ishlarini bajarish	B3.01.3	Moylash, sathni tekshirish
				B3.02.3	Filtrlarni, havo chiqarish valflarini tozalash
		B4.3		B4.01.3	Avariya holatlarida favqulodda to'xtatish

			Nosozliklar haqida mexanik (chilangar) va dispetcherga xabar berish	B4.02.3	Yozma va ogʻzaki axborot berish
3	8342031 Meliorativ texnika operatori	C1.3	Meliorativ texnikalarni boshqarish	C1.01.3	Texnikaning texnik holatini ishga tushirishdan oldin tekshirish (dvigatel, gidravlika, tormoz, signal tizimi)
				C1.02.3	Suv chiqarish yoki sugʻorish tizimlarida yer osti quvurlarini yotqizish ishlarini bajarishda texnikani boshqarish
		C2.3	Meliorativ texnikani boshqarish va ekspluatatsiya qilish	C2.01.3	Meliorativ texnikaning ishga tayyor holatini ta'minlash
				C2.02.3	Sugʻorish, quritish, drenaj, yer tekislash, ariq va kanal qazish ishlarini bajarish
				C2.03.3	Meliorativ texnika ekspluatatsiyasi bo'yicha texnik hujjatlarni yuritish
		C3.3	Nasos va drenaj tizimlarini ishlatish	C3.01.3	Nasos va drenaj qurilmalarining ishga tayyorligini tekshirish
				C3.02.3	Nasos va drenaj tizimlarini ishga tushirish
				C3.03.3	Suv chiqarish va drenajlash jarayonini boshqarish
	3142013 Texnik meliorator	D1.5	Melioratsiya tizimlarini loyihaviy hujjatlar asosida oʻrganish va tahlil qilish	D1.01.5	Loyihaviy hujjatlar to'plamini yig'ish va tizimlashtirish
				D1.02.5	Tizim elementlari (kanal, quvur, drenaj tarmog'i, nasos stansiyasi va h.k.) o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash
				D1.03.5	Geologik va gidrologik sharoitlarga loyiha mosligini tekshirish
		D2.5	Melioratsiya tizimlarining texnik holatini nazorat qilish	D2.01.5	Melioratsiya tizimlari holatini rejalashtirilgan tekshiruv asosida ko'zdan kechirish
				D2.02.5	Gidromeliorativ qurilmalarning ishlashini kuzatish
				D2.03.5	Tizimdagi nosozliklarni aniqlash va hujjatlashtirish
		D3.5	Meliorativ texnika va uskuna ishlashini nazorat qilish	D3.01.5	Meliorativ texnika va uskunaning ishga tayyorligini tekshirish
				D3.02.5	Texnika va uskunani ishga tushirish va ishlash jarayonini nazorat qilish
				D3.03.5	Texnik xizmat ko'rsatish ishlarini nazorat qilish
4	3115047 Nasos stansiyasi va gidrotexnik qurilmalar	E1.5	Montaj va ta'mirlash ishlari uchun kerakli chizmalar, sxemalar, texnik shartlarni oʻrganish va tayyorlash	E1.01.5	Montaj va ta'mirlash ishlari uchun kerakli chizmalar, sxemalar, texnik shartlarni oʻrganish va tayyorlash

5	jihozlarini ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha texnik	E2.5	Nasos stansiyalari jihozlarini montajga tayyorlash va o'rnatish	E2.01.5	Asosiy jihozlar (nasoslar, armaturalar, quvurlar) va yordamchi mexanizmlarni joylashtirish
				E2.02.5	O'rnatilayotgan uskunalarning to'g'ri joylashuvi va muvofiqligini nazorat qilish
		E3.5	Gidrotexnik inshootlardagi texnologik jihozlarni sozlash va tekshirish	E3.01.5	To'g'on, suv ombori, kanal, suv chiqarish tizimi jihozlarini texnik tekshirish
				E3.02.5	Germetiklik, oqim, bosim va daraja ko'rsatkichlarini sinovdan o'tkazish
	3115048 Nasoslar va nasos stansiyalaridan foydalanish xizmati texnigi	F1.5	Nasos stansiyalarining ish holatini nazorat qilish	F1.01.5	Ishlayotgan nasos agregatlarining holatini texnik jihatdan tahlil qilish
				F1.02.5	Bosim, harorat, oqim, elektr sarfi va boshqa ish parametrlarini monitoring qilish
		F2.5	Texnik xizmat va ta'mirlash ishlarini nazorat qilish	F2.01.5	Ish jurnallari, smena daftarlari, texnik xizmat ko'rsatish jurnallari, nosozlik aktlari
				F2.02.5	Nasoslarning ish samaradorligi, ishlamay qolish vaqtlari haqida hisobot tuzish
		F3.5	Ishdan chiqishlar va nosozliklarni tahlil qilish	F3.01.5	Avvalgi ishlamay qolish holatlarini tahlil qilish
				F3.02.5	Avariyaviy nosozliklarning sabablarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar kiritish
		F4.5	Gidravlik va texnologik sxemalar asosida boshqaruvni tahlil qilish	F4.01.5	Nasos stansiyasining texnologik sxemalari asosida suyuqlik oqimini, nasoslarni almashinuvi va zaxira uskunalar ishini tahlil qilish

IV. Kasblar kartasi va mehnat vazifalari tavsifi

Kasbning nomi	Nasoslar va nasos stansiyalarini ta'mirlash va ekspluatatsiyasi bo'yicha chilangar	
Mashg'ulot nomining kodi	7233132	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3daraja uchun talab etilmaydi. 23 oylik amaliyot yetarli	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikatini Ishga munosabat va xulqatvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona foydalangan holda bajarish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrofmuhitni muhofaza qilish, sanitariyagigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish; - o'z tajribasini hamkasblari bilan bo'lishish; - jamoa bilan inoq ishlash; - o'z vazifalariga bog'liq yangilik va innovatsiyalarni kuzatib borish, o'zlashtirish va joriy qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	3daraja uchun boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	3daraja uchun – o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim va norasmiy (informal) ta'lim natijalarini malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholanganligi	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi	Kasbiy standartlar reestri ixtiyoriy yoki majburiy asosda mustaqil baholashdan o'tkaziladigan kasblar to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlar bazasi hisoblandi	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	26 razryadli Nasos qurilmalari bo'yicha chilangar	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Nasoslar va nasos stansiyalarini ta'mirlash va ekspluatatsiyasi bo'yicha chilangar

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 Nasos uskunalarining texnik holatini tekshirish	A1.01.3 Vizual va instrumental usulda holatini aniqlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tayyorlanish
		2. Vizual tekshiruv
		3. Instrumental tekshiruv
		4. Natijalarni qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Nasos va uning qismlarini sinchiklab ko'zdan kechirish, shikastlanish, yoriq, korroziya va boshqa nuqsonlarni aniqlash
		O'lchov asboblari yordamida bosim, harorat, vibratsiya va elektr parametrlarini aniq o'lchash
		Olingan ma'lumotlarni solishtirish va texnik holat bo'yicha xulosa chiqarish
		Aniqlangan kamchiliklar va nosozliklar haqida yozma xulosa yoki hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		Nasoslar va nasos stansiyalarining tuzilishi va ishlash prinsipi
		Texnik holat tushunchasi va diagnostika usullari
		Manometr, termometr, vibrometr, multimeter va boshqalar haqida nazariy va amaliy bilimlar
		Mexanik va elektr uskunalari haqida asosiy bilimlar
	A1.02.3 Uskunalarini ishga tushirishdan oldin va so'ng tekshirish	Ish jarayonida foydalaniladigan texnik hujjatlarni tushunish va bajarish qoidalari
		Mehnat xavfsizligi va sanoat gigienasi qoidalari
		Mehnat harakatlari:
		1.Nasosning ishga tushirilishini diqqat bilan kuzatish
		2.Asosiy parametrlarni o'lchash va nazorat qilish
		3.Nosozliklarni aniqlash
		4.Ishga tushirish va tekshiruv natijalarini qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Asbobuskunalarni vizual tekshiruvdan o'tkazish
		Manometr, termometr, vibrometr, multimeter orqali texnik parametrlarni aniqlash
		Me'yordagi ish parametrlarini aniqlash va baholash
		Ishga tushirishdagi xavfsiz ketmaketlikni bajara olish
		Qurilmani qo'lda yoki avtomatik rejimda ishga tushirish
		Shovqin, tebranish, haddan tashqari isish va boshqa ogohlantiruvchi belgilarni tahlil qilish
		Tekshiruv natijalarini to'g'ri hujjatlashtirish va rasmiylashtirish
		Bilimlar:
		Uskunaning asosiy qismlari, ishlash prinsipi, sxemalari
		Qurilmaning xavfsiz ishga tushirilishi va to'xtatilishi bo'yicha tartib
		Vizual va instrumental tekshiruv usullari, o'lchov asboblari ishlash tamoyili

		Elektr motorlar, boshqaruv panellari bilan ishlashda ehtiyot choralar
		Ish oldidan va davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan xavfsizlik talablari
		Nasos stansiyasi sxemalari, pasportlari, ko'rsatmalarini tushunish
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Nasos uskunasi texnik holatini noto'g'ri baholash oqibatlarining oldini olish uchun mas'ul bo'lish
		2. Diagnostika natijalari asosida berilgan xulosa va hisobotlarning to'g'riligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish
		3. Texnik nosozlik yoki xavfli holatlarni o'z vaqtida aniqlab, tegishli mutasaddilarga xabar berish majburiyatini bajarish
		4. Oddiy mexanik va vizual tekshiruv ishlarini bevosita rahbar nazoratisiz mustaqil bajarish
	A2.3 Nasoslarni va ularning qismlarini ta'mirlash	Mehnat harakatlari:
		1. Dastlabki tekshiruvni amalga oshirish
		2. Diagnostika uskunalarini ulash va testdan o'tkazish
		3. Nosoz qismlarni aniqlash va joylashuvini belgilash
		4. Qismlarni ta'mirlash yoki almashtirish
		5. Qurilmani qayta yig'ish va xavfsizligini tekshirish
		6. Qurilmani elektr tarmog'iga ulab, sinov rejimida ishga tushirish
		7. Amalga oshirilgan ta'mirlash yoki almashtirish ishlarini qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Nosoz qismlarni aniqlash ko'nikmasi
		Qurilmani xavfsiz tarzda qismlarga ajrata olish
		Ehtiyot qismlarni almashtira olish
		Qayta yig'ish va sozlash ko'nikmalari
		Payvandlash, kontaktlarni tozalash, murvat/boltlarni yangilash
		Bilimlar:
		Texnik chizmalar va sxemalarni o'qish
		Uskuna va qurilmalar tuzilishi va ishlash prinsipi
		Nosozliklarni aniqlashda qo'llaniladigan metodlar (vizual, akustik, funksional sinov)
		Materiallar va ehtiyot qismlar haqida bilim
		Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish standartlari
		Asbobuskunalar bilan ishlash qoidalari
	A2.02.3 Ta'mirdan so'ng yig'ish, sozlash va ishga tushirish	Mehnat harakatlari:
		1. Barcha ehtiyot qismlar, asbobuskunalar va texnik hujjatlarni tayyorlash
		2. Qurilmani bosqichmabosqich yig'ish
		3. Elektr/elektron ulanishlarni tiklash
		4. Boshqaruv tizimini va xavfsizlik elementlarini sozlash
		5. Sinov ishga tushirishni amalga oshirish (test rejimida)
		Ko'nikmalar:
		Qurilmani to'g'ri yig'a olish

		Sozlash ishlarini bajarish
		Elektr va boshqaruv tizimlarini ulash
		Nosozliklarni aniqlash va tezkor sozlash
		Amalga oshirilgan yig'ish, sozlash va ishga tushirish ishlarini qayd etish
		Bilimlar:
		Qurilma va mexanizmlarning tuzilishi va ishlash prinsipi
		Yig'ish va demontaj texnologiyalari
		Sozlash usullari
		O'lchov asboblari va nazorat vositalari
		Mehnat xavfsizligi va elektr xavfsizligi qoidalari
		Texnik hujjatlar bilan ishlash
		A2.03.3 Podshipnik, muhr, impeller, val, korpus, mufta kabi qismlar bilan ishlash
	1. Tayyorlov ishlarini amalga oshirish	
	2. Qurilmani demontaj qilish	
	3. Qismlarni ko'zdan kechirish va aniqlash	
	4. Yaroqsiz qismlarni almashtirishga tayyorlash	
	5. Sozlash va muvozanatlashtirish	
	Ko'nikmalar:	
	Podshipniklarni to'g'ri ajrata va o'rnatib bera olish	
	Val va muftani markazlashtira olish	
	Impeller bilan ishlash	
	Mexanik qismlarni o'lchash va tekshira olish	
	Qurilmani texnologik tartibda yig'ish	
	Bilimlar:	
	Mexanik qismlarning tuzilishi va funksiyasi	
	Montaj va demontaj texnologiyalari	
	Texnik chizmalarni va o'lchov standartlarini o'qish	
	Asboblarni bilan ishlash qoidalari	
	Materiallar xossalari	
	Mehnat va texnika xavfsizligi qoidalari	
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Qurilma va mexanizmlarning texnik sozligi va xavfsiz ishlashi uchun to'liq javobgarlik
		2. Almashtirilgan qismlar sifatini tekshirish va noto'g'ri yig'ish oqibatlarini oldini olish
		3. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha texnik hujjatlar, dalolatnomalar va hisobotlar uchun mas'ul bo'lish
		4. Texnik topshiriq asosida o'z ishini mustaqil rejalashtira olish
		5. Nosozliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha qaror qabul qilishda mustaqil ishlash
		6. Zaruratda rahbarga xabar berish va texnik takliflar kiritish tashabbusini ko'rsatish
A3.3 Uskunalar montaj va demontaj qilish	A3.01.3 Texnik chizmalar asosida jihozlarni yig'ish	Mehnat harakatlari:
		1. Texnik chizmalarni o'rganish va tayyorlanish
		2. Ish joyini tayyorlash va asboblarni tayyorlash
		3. Jihozlarni qismlarga ajratish
		4. Ish joyini tozalash va asboblarni tartibga keltirish

	va qismlarga ajratish	Ko'nikmalar: Texnik chizmalar bo'yicha ish olib borish Jihozlarni qismlarga ajratish va yig'ish ko'nikmasi Asbobuskunalaridan samarali foydalanish Detallarni ko'zdan kechirish, o'lchash, nosozlik va yoriqlarni aniqlash Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish Bilimlar: Jihozlarning konstruksiyasi, o'lchamlari va qismlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlay olish Jihozlarning tuzilishi va ishlash prinsiplari Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik qoidalarini Asbobuskunalar va montaj usullari haqida bilim Qismlarning sifati va mosligini aniqlash mezonlari, o'lchov vositalaridan foydalanish qoidalarini
	A3.02.3 Yangi yoki ta'mirdan chiqqan nasoslarni o'rnatish	Mehnat harakatlari: 1. Ish jarayoni uchun zarur vositalar va jihozlarni aniqlash 2. Nasos o'rnatilishi kerak bo'lgan joyni tozalash va tekislash 3. Elektr ulanishlarni xavfsizlik qoidalariga muvofiq bajarish 4. Nasosning aylanish yo'nalishi va mexanik bog'lanishlarni nazorat qilish Ko'nikmalar: Nasosni o'rnatish va elektr ulanish sxemasini o'zlashtirish Nasos ishini nazorat qilish, nosozliklarni aniqlash va tuzatish Nasoslarni to'g'ri joylashtirish, mahkamlash va ulanishlarni bajarish Elektromotor va elektr tizimlarini xavfsiz ulash Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish Zarurat bo'lganda boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash Bilimlar: Ish joyini tayyorlash va mehnat muhofazasi qoidalarini Mexanik o'rnatish va biriktirish usullari Nasoslar va ularning qurilishi haqida bilim Texnik chizmalarni o'qish va talqin qilish Elektr xavfsizligi qoidalarini
	A3.03.3 Quvurlar, armaturalar va biriktiruvchi qismlarni ulash	Mehnat harakatlari: 1. Quvurlar va armaturalarni ulash bo'yicha texnik chizmalar va ishlash ko'rsatmalarini o'rganish 2. Quvurlar va armaturalarni tayyorlash 3. Biriktiruvchi qismlarni tayyorlash 4. Zarur o'lchov asboblari yordamida o'lchovlarni tekshirish Ko'nikmalar: Chizmalar asosida quvurlar va armaturalarni to'g'ri ulash Quvurlarni kesish, tayyorlash va ulash Biriktiruvchi qismlardan foydalanish ko'nikmasi

		Ulanishning mustahkamligi va muhrlanishini nazorat qilish, nosozliklarni aniqlash
		Bilimlar:
		Quvurlar va armaturalarni ulash bo'yicha chizmalarni tushunish, o'lchamlar va ulanish tartibini bilish
		Quvurlar va armaturalarning qurilishi va ishlash prinsiplari
		Ulanish turlari va usullari
		Asbobuskunalar va biriktiruvchi elementlar haqida bilim
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Ishni texnik talab va standartlarga muvofiq bajarish, noto'g'ri yig'ish yoki ulash natijasida jihozlarning ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik uchun javobgarlik
		2. Qismlarni to'g'ri ajratish, nasos va quvurlarni to'g'ri o'rnatish va ulash, sifatli va mustahkam bog'lanishni ta'minlash
		3. Ulanish usullarini tanlash, asbobuskunalardan foydalanish tartibini belgilash, kichik sozlash va tuzatish ishlarini amalga oshirishda mustaqil qarorlar qabul qilish
		4. Ish paytida xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash, o'z xatolaridan kelib chiqadigan xavfxatarlarni oldini olishga mustaqil e'tibor berish
A4.3 Nasos stansiyalarini ekspluatatsiya qilish	A4.01.3Nasosni ishga tushirish, ishlash jarayonida kuzatish va to'xtatish	Mehnat harakatlari:
		1. Ishga tushirishga tayyorgarlik
		2. Nasosni ishga tushirish
		3. Ishlash jarayonida kuzatish
		4. Nasosni to'xtatish
		Ko'nikmalar:
		Nasosni ishga tushirish va to'xtatish bo'yicha amaliyot
		Ish parametrlarini o'qish va baholash ko'nikmasi
		Shovqin, tebranish va oqishlarni aniqlash
		Nasosni xavfsiz to'xtatish
		Nosozlik bo'yicha rahbarga yoki ustaga xabar berish
		Bilimlar:
		Nasoslarning turlari va ishlash prinsiplari
		Boshqaruv tizimlari va ulanish sxemalari
	A4.02.3 Oqim, bosim, harorat kabi parametrlarni doimiy nazorat qilish	O'lchov asboblari va sensorlar haqida bilim
		Mehnat muhofazasi va elektr xavfsizligi qoidalari
		Nasos xavfsizlik tizimlari va himoya vositalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Nazorat qilinadigan uskunalar ro'yxatini aniqlash
		2. Parametrlarni kuzatish jarayoni
		3. Muammolarni aniqlash va choralar ko'rish
		4. Ish vaqti tugagach o'lchov asboblari o'chirib qo'yish (agar kerak bo'lsa), tozalash, joyiga qo'yish
		Ko'nikmalar:
		Asboblarni ishlash ko'nikmalari
		Parametrlarning normal holatini aniqlash
		Nosozliklarni tez aniqlash va choralar ko'rish

		O'Ichov natijalarini ish jurnali yoki elektron monitoring tizimiga to'g'ri va aniq kiritish	
		Parametrlardagi mayda og'ishlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik	
		Bilimlar:	
		Texnik bilimlar	
		Nazorat ostidagi jarayonlarning texnologik talablari	
		Avtomatik nazorat va himoya tizimlari haqida bilim	
		Mehnat xavfsizligi va favqulodda vaziyat qoidalar	
		Nosozlik belgilari va ularning oqibatlari	
	A4.03.3 Zaxira nasoslarni ulash va avtomatik tizimlarni sozlash		Mehnat harakatlari:
			1. Avtomatika tizimining ishlash printsipi va zaxira rejimi qachon ishga tushishini aniqlash
			2. Elektr asboblari, kalitlar, test asboblari, ulanish uchun quvurlar, klapanlar va muhrlash materiallarini tayyorlash
			3. Qurilmaning butligi, montajga tayyorligi, elektr va mexanik ulanish joylarining holatini tekshirish
			4. Nasos avtomatik ravishda asosiy nasos nosoz bo'lganda yoki bosim me'yordan tushganda ishga tushishi uchun sensor va relaylar parametrlarini sozlash
			Ko'nikmalar:
			Quvur liniyalarini armaturalar orqali ulash va mahkamlash
			Elektr ulanish va sozlash ko'nikmasi
			Nosozliklarni aniqlash va bartaraf etish
			Avtomatik ishga tushirishni imitatsiya qilish (sinov holatida asosiy nasosni o'chirib zaxirani ishga tushirish)
			Amalga oshirilgan ulanish va sozlash jarayonlarini yozma yoki elektron shaklda hujjatlashtirish
			Bilimlar:
			Avariya holatida signal berish, favqulodda to'xtatish (emergency stop), ortiqcha yukdan himoya tizimlari haqida bilim
			Elektr jihozlar va avtomatik boshqaruv
			Gidravlik va pnevmatik tizimlar asoslari
			Nasoslar va ularning ishlash prinsipi
			Mehnat muhofazasi va elektr xavfsizligi
	Mas'uliyat va mustaqillik:		1. Ishlab chiqarish jarayonida nasoslar, armaturalar va avtomatik tizimlarning to'g'ri ishlashini ta'minlash
			2. Nasos yoki avtomatik tizimning ishlashiga ta'sir ko'rsatuvchi parametrlar asosida mustaqil ravishda ish rejimini o'zgartirish yoki xizmat ko'rsatishni boshlash
			3. Nosozlik holatlarida tezkor va mustaqil harakat qilish
			4. Me'yoriy texnik hujjatlar, eskizlar, elektrulanish sxemalari va texnologik yo'riqnomalar asosida mustaqil ishlay olish
Texnik va/yoki texnologik talab		- Nasos uskunalarining qurilishi, ishlash prinsiplari va texnik tavsiflari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish - Ta'mirlash, montaj va demontaj ishlari uchun zarur bo'lgan asbobuskunalar va materiallardan foydalanish	

	- Nasos va nasos stansiyalarini ekspluatatsiya qilish va ta'mirlashning texnologik tartibqoidalarini bilish - Ishlab chiqarish xavfsizligi, mehnat muhofazasi va atrofmuhitni muhofaza qilish talablariga rioya qilish
--	---

Kasbning nomi	Nasos qurilmalari mashinisti	
Mashg'ulot nomining kodi	8182033	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3daraja uchun talab etilmaydi. 23 oylik amaliyot yetarli	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Ishga 18 yoshga to'lganlar qabul qilinadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikati Ishga munosabat va xulqatvor: -rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; -o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; -belgilangan vazifalarni ish vaqtidan unumli va oqilona oydalangan holda bajarish; -mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrofmuhitni muhofaza qilish, sanitariyagigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	3 daraja uchun boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	3 daraja uchun – o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim va norasmiy (informal) ta'lim natijalarini malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholanganligi	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi	Kasbiy standartlar reestri ixtiyoriy yoki majburiy asosda mustaqil baholashdan o'tkaziladigan kasblar to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlar bazasi hisoblandi	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	25 razryadli Nasos uskunalari operatori	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Nasos qurilmalari mashinisti

Mehnat funksiyalarining tavsifi

Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 Nasos qurilmalari va ularning yordamchi uskunalari	B1.01.3 Dvigatellarni ishga tushirish/to'xtatish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Dvigatel ishga tushishidan oldin tashqi ko'rik o'tkazish
		2. Boshqaruv tizimini tekshirish
		3. Dvigatelni ishga tushirish
		4. Ishlayotgan dvigatel holatini kuzatish

ishga tushirish va to'xtatish		5. Avariya signalizatsiyasi va og'ish holatlarini aniqlash Ko'nikmalar: Belgilangan tartibda va texnologik reglamentga asosan dvigatelni ishga tushirish va xavfsiz tarzda to'xtatish Ulovchi elementlar, elektr kalitlari, himoya qurilmalari va signal tizimlarini vizual va funksional tekshirish Dvigatelning ish parametrlarini kuzatish Nosozlikni aniqlash va dastlabki bartaraf etish Bilimlar: Monitoring va himoya vositalari Elektr dvigatellarning tuzilishi va ishlash prinsipi Dvigatelni ishga tushirish usullari Moylash va sovitish tizimlari Elektr xavfsizligi qoidalari
	B1.02.3 Bosim, daraja, harorat kabi ishchi parametrlarni belgilangan rejimga keltirish	Mehnat harakatlari: 1. O'lchov asboblari va datchiklar ko'rsatkichlarini o'rganish 2. Texnologik reglament, yo'riqnoma yoki ishlab chiqarish grafikasi asosida kerakli ishchi parametrlar (bosim, harorat, daraja) me'yorini aniqlash 3. Parametrlarni belgilangan rejimga keltirish uchun tegishli sozlash ishlarini bajarish 4. Tizimni barqarorlashtirish va parametrlarni doimiy nazorat qilish Ko'nikmalar: Qurilmalardan o'qilgan raqamli yoki analog ko'rsatkichlarni to'g'ri tahlil qilish va ularni me'yor bilan solishtira olish Haroratning ortib ketishi, bosimning pasayishi yoki suyuqlik darajasining normadan chiqishini tezda aniqlash Armatura, klapan, regulyatorlar orqali bosim yoki darajani qo'lda yoki avtomatik tarzda me'yorga keltirish Datchik, signalizatsiya va avtomatik regulyatorlar orqali tizimni muvozanatda saqlash Texnik jurnal yoki elektron tizimda parametrlar, og'ish va kiritilgan o'zgarishlarni hujjatlashtirish Bilimlar: Texnologik jarayonlar asoslari O'lchash asboblarning ishlash prinsipi Texnologik me'yor va rejimlar Avtomatik boshqaruv tizimlari Gidravlik va termodinamik asoslar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Dvigatellarni ishga tushirish va to'xtatishni xavfsiz va texnologik me'yorlarga muvofiq bajarish 2. Ishchi parametrlarni (bosim, harorat, daraja) doimiy ravishda monitoring qilish 3. Dvigatellarni ishga tushirish va to'xtatishni mustaqil bajarish 4. Jarayon davomida kichik o'zgarishlarni boshqaruv tizimi yordamida mustaqil amalga oshirish

B2.3Nasos stansiyalaridagi qurilmalarni texnologik rejim asosida boshqarish	B2.01.3 Zaxira nasoslarni navbatmanavbat ulash	Mehnat harakatlari:
		1. Zaxira nasoslarning texnik holatini tekshirish
		2. Elektr va yoqilg'i ta'minotini tekshirish, valf va klapanlarning ochilish holatini nazorat qilish
		3. Zaxira nasoslarni boshqaruv paneli yordamida tayyorlash
		4. Amalda bajarilgan harakatlar, o'zgartirishlar va kuzatuv natijalarini texnik jurnalda qayd etish
		Ko'nikmalar:
		Zaxira nasoslarning ishga tayyorligini tekshirish
		Nasoslarni avtomatik navbat rejimida ishga tushirish va to'xtatish
		Suv yoki suyuqlik oqimini xavfsiz ravishda yo'naltira olish, oqimni kerakli yo'nalishga burish
		Datchiklar orqali bosim yoki haroratga mos ravishda zaxira nasos ishga tushishini avtomatik sozlay olish
		Bilimlar:
		Klapanlar va armaturalar bilan ishlash qoidalari
		Asosiy va zaxira nasoslar tuzilmasi, ishlash tartibi, ulanish sxemalari va yuklamani taqsimlash mexanizmlari
		Rejalashtirilgan nasos almashtirish algoritmlari: vaqt bo'yicha, ish soatlari bo'yicha yoki yuklama taqsimoti bo'yicha
		Tizim bosimi, oqim va harorat parametrlarining normativlari
		Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi talablari
	B2.02.3 Vana, klapan, kranlarni to'g'ri tartibda ochish/yopish	Mehnat harakatlari:
		1. Quvurlar tarmog'i, vana, klapan va kranlarning joylashuvi, vazifasi va tartibli ishlash ketmaketligini aniqlash
		2. Vana va klapanlarning sızdırmaslik, zang, ifloslanish, ishlashga tayyorligini tekshirish
		3. Nasos, kompressor yoki boshqa bosim ostidagi tizimlar bilan bog'liq bo'lsa, ularni avval tayyor holatga keltirish
		4. Vana, klapan yoki kranlarni belgilangan tartibda ochish
		Ko'nikmalar:
		Quvur tarmog'i va armatura joylashuvini aniqlash, oqim yo'nalishini belgilay olish
		Armaturani to'g'ri ketmaketlikda, bosim va oqimga zarar yetkazmasdan ochish/yopish
		Bosim, harorat, daraja ko'rsatkichlariga qarab armatura bilan ishlash bo'yicha qaror qabul qilish
		Operatsion xavfsizlik choralarini ko'rish
		Texnik holatni vizual va funksional tekshirish
		Bilimlar:
		Texnologik quvurlar tizimlari sxemasi
		Bosim ostida ishlovchi armaturaning turlari
		Ishlab chiqarish reglamenti asosida ochish va yopish ketmaketligi, xavfsizlikni ta'minlash talablari

		Oqim, bosim va harorat fizikasi asoslari
		Ishlab chiqarish xavfsizligi qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Nasoslarni navbat bilan ulash rejimiga qat'iy rioya qilish
		2. Klapan, vana, kranlarning ochilish/yopilish tartibini buzmaslik va texnologik xavfsizlikni ta'minlash
		3. O'ziga biriktirilgan quvur liniyasi va nasos tizimlarining to'g'ri ishlash holatini doimiy kuzatib borish
		4. Nasoslar yuklamasini muvozanatlash bo'yicha amaliy harakatlarni mustaqil amalga oshirish
		5. Klapanlar, kranlar yoki vanalarni mexanik nosozliklarga tekshirib, ularni aniqlash bo'yicha mustaqil tashxis qo'yish
B3.3 Yengil texnik xizmat ishlarini bajarish	B3.01.3 Moylash, sathni tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Qurilma, mexanizm yoki agregatning pasporti va texnik yo'riqnomasiga asosan moylanadigan nuqtalarni aniqlash
		2. Qo'lda, avtomatik, siqilgan havo yordamida yoki moy nasosi orqali moylash usulini aniqlash
		3. Ishlatiladigan moy turini aniqlash
		4. Moy sathini tekshirish uchun asbobdan foydalanish
		5. Sensorlar, klapanlar, nasoslar yoki avtomatik taqsimlagichlarning ishlash holatini ko'zdan kechirish
		Ko'nikmalar:
		Texnik hujjat asosida moylash nuqtalarini topish va aniqlash
		Moy sathini to'g'ri aniqlash
		Qurilmaga qarab to'g'ri uslubda (qo'lda, avtomatik, purkash orqali) moylashni bajarish
		Zarur miqdorda va sifatli moyni tanlab qo'shish
		Moylangan joyni ortiqcha iflosliklardan tozalash, ish joyida gigienik me'yorlarga rioya qilish
		Bilimlar:
		Texnik moylar va surkov materiallari turlari
		Moylash sxemalari va rejimlari
		Qo'lda moylash, avtomatik moylash, siqilgan havo bilan uzatish va moy nasoslari ishlash prinsipi
		Moy sathi nazorati usullari
		Asbobuskunalar, nasoslar, dvigatellar yoki mexanizmlarda moylanishi kerak bo'lgan qismlarni aniqlash usullari
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi
	B3.02.3 Filtrlarni, havo chiqarish valflarini tozalash	Mehnat harakatlari:
		1. Filtrlar va havo chiqarish valflarining ish faoliyatini, o'tkazuvchanligini, signalizatsiya yoki bosim ko'rsatkichlari orqali tekshirish
		2. Tozalash uchun kerakli vositalarni tayyorlash
		3. Filtrlarni yechish (demontaj qilish)
		4. Filtr to'rlarini va ichki qismini mexanik/uslubiy tozalash
		5. Normativ xizmat muddati o'tgan yoki yaroqsiz holga kelgan filtrlarni yangisiga almashtirish

		Ko'nikmalar:
		Bosim pasayishi, oqim buzilishi, shovqin yoki signal indikatorlari orqali nosozlikni aniqlash
		Mexanik qismlarga shikast yetkazmasdan montaj/demontaj ishlarini bajara olish
		Tozalash vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Yaroqsiz filtr elementini farqlay olish va yangi detallarni joylashtirish
		Tozalangan qismlar, sanasi, qo'llanilgan vositalar haqida hujjatlashtirishni amalga oshirish
		Bilimlar:
		Mexanik, gidravlik, havo, yog' va boshqa filtrlar, ularning ishlash prinsipi va elementlari
		Avtomatik va qo'lda boshqariladigan valflarning ishlash printsiplari va texnologik vazifasi
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalari
		Asbobuskunalarni xavfsiz to'xtatish va ishga tushirish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tozalash ishlari paytida texnika xavfsizligiga qat'iy rioya qilish
		2. Nasos yoki tizim ishlashida avariya holatlarning oldini olish uchun tozalashni belgilangan muddatda bajarish
		3. Filtr va valflarning ifloslanish darajasini mustaqil aniqlash va tozalash zarurligini baholash
		4. Zarurat tug'ilganda nosoz filtrni almashtirish to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish
B4.3Nosozliklar haqida mexanik (chilangar) va dispetcherga xabar berish	B4.01.3 Avariya holatlarida favqulodda to'xtatish	Mehnat harakatlari:
		1. Ishchi parametrlarning keskin o'zgarishi (bosim, harorat, oqim), g'ayritabiiy shovqin, vibratsiya, sızma yoki signalizatsiya orqali nosozlikni aniqlash
		2. Avariya darajasini baholash
		3. Avtomatik signalizatsiya va ogohlantirish tizimlarini ishga tushirish
		4. Nosoz qismni ajratish
		Ko'nikmalar:
		Parametrlar va vizual belgilar asosida nosozlik turini aniqlashga doir tezkor harakat ko'rsatish
		Nosoz tizimni ajratib izolyatsiyalash
		Dispetcherlik xabar berish va tahlil qilish
		Bilimlar:
		Avariya holatlari turlari va belgilari
		Qurilma va tizimning favqulodda o'chirish sxemasi
		Avtomatik signalizatsiya va ogohlantirish tizimlari
		Hodisa vaqtini, sababi va ko'rilgan choralarni rasmiy hujjatlarda aks ettirish tartibi
	B4.02.3 Yozma va og'zaki axborot berish	Mehnat harakatlari:
		1. Qurilma, tizim yoki operatsiya davomida yuzaga kelgan o'zgarish, avariya, nosozlik yoki texnik xizmat holatini aniqlash

		2. Navbatchi muhandis yoki rahbarga og'zaki xabar berish 3. Qurilma holati, xizmat ko'rsatish va/yoki to'xtatish sababi haqidagi ma'lumotlarni ishlab chiqarish jurnali yoki texnik nazorat varag'iga yozib qo'yish 4. Texnik va xavfsizlik bo'yicha og'zaki ogohlantirishlar berish Ko'nikmalar: Texnik holatni aniq tasvirlash va bayon etish Mexanik, dispetcher yoki rahbarga nosozlik, to'xtash, parametr o'zgarishi kabi holatlarni og'zaki tarzda izchil yetkazish Ish jurnali yoki xizmat ko'rsatish hujjatiga holat bo'yicha yozma axborotni xatosiz, rasmiy uslubda yozib qo'yish "Bosim past", "nasos to'xtadi", "klapan yopilmagan", "filtr to'silgan" kabi atamalarni ish holatiga mos ravishda to'g'ri ishlatish Bilimlar: Axborot berish tartibi va qoidalari Texnik hujjatlarni yuritish asoslari Qurilma nomlari, texnik parametrlar (bosim, harorat, oqim), nosozlik belgilarini aniq ifodalovchi atamalarni bilish Mexanik, chilangar, dispetcher, navbatchi muhandis, texnik xizmat rahbari kabi shaxslarga xabar berish ketmaketligini bilish
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Avariya holatini vaqtida aniqlash, texnikani xavfsiz tarzda to'xtatish va bu haqda tegishli mutasaddilarga xabar berish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish; 2. Nosozlik yuzasidan mustaqil fikr yuritib, o'z tashabbusi bilan tegishli xizmatlarga xabar berish; 3. Xavfli holatda noto'g'ri yoki kechikkan harakatlar natijasida yuzaga keladigan texnik, ekologik yoki sog'liq uchun xavflarga nisbatan mas'uliyatni his etish; 4. Yozma yoki og'zaki axborotning to'g'riligi, aniqligi va tezkorligiga javobgar bo'lish; 5. Axborot berishda holatni baholash va uni aniq, qisqa shaklda bayon qilishda mustaqil harakat qilish.
Texnik va/yoki texnologik talab		- Nasos qurilmalari va ularning yordamchi uskunalari qurilmasi, ishlash prinsiplari va texnik tavsiflarini chuqur bilish; - Ishga tushirish va to'xtatish jarayonlari, shu jumladan favqulodda holatlarda amalga oshiriladigan choratadbirlarni bilish; - Nosozliklarni aniqlash, ularni mexanik (chilangar) va dispetcherga vaqtida xabar berish tartibi; - Ish jarayonida aniqlangan nosozliklar va muammolarni tezkor aniqlash va ularga munosib choralar ko'rish.

Kasbning nomi	Meliorativ texnika operatori	
Mashg'ulot nomining kodi	8342031	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	3daraja uchun 5–6 oy amaliy ish tajribasi talab qilinadi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Maxsus ruxsatlar: Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan), shuningdek, navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (ko'rikdan) o'tish. Ishchi kasbi sertifikatini Ishga munosabat va xulqatvor: - rahbarlariga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish; - o'z bilimi, tajribasi va vakolati doirasida qarorlar qabul qilish; - Texnik muammolarni oldindan sezish, o'z takliflarini berish; - mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, atrofmuhitni muhofaza qilish, sanitariyagigiyena, yong'in va elektr xavfsizligi qoidalariga rioya qilish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	3daraja uchun professional ta'lim kasbga mos ta'lim yo'nalishini tamomlagan bo'lsa (masalan, Melioratsiya texnikasi va texnologiyasi, Traktorchimashinist yo'nalishlari).	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	3daraja uchun – o'rta ta'lim, o'rta maxsus ta'lim va norasmiy (informal) ta'lim natijalarini malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil baholanganligi	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi	Kasbiy standartlar reestri ixtiyoriy yoki majburiy asosda mustaqil baholashdan o'tkaziladigan kasblar to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlar bazasi hisoblandi	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	Texnikmeliorator	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Meliorativ texnika operatori
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
C1.3 Meliorativ texnikalarni boshqarish	C1.01.3 Texnikaning texnik holatini ishga tushirishdan oldin tekshirish	Mehnat harakatlari:
		1. Ishga oid texnik chizmalar, sxemalar va texnik shartnomalarni olish va ularni to'liqligi hamda mosligini tekshirish
		2. Chizma va sxemalardagi qurilma qismlari, ulanishlar va ish jarayonini tushunish, asosiy texnik talablarni aniqlash
		3. Qurilmalarni yig'ish va ta'mirlash bosqichlarini chizmalar asosida ketmaket belgilash
		4. Ish jarayonida yuzaga kelgan o'zgarishlar, qo'shimchalar bo'yicha chizmalar yoki ish hujjatlarini tayyorlash

		5. Ish davomida chizma va texnik shartlar talablariga to'liq amal qilinishini ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Chizmalar, sxemalar va texnik shartlarni to'g'ri tushunish va izohlash
		Ish jarayonini chizmalar asosida bosqichmabosqich tashkil etish
		Texnik hujjatlarni tayyorlash ko'nikmasi
		Aloqa va ma'lumot uzatish ko'nikmasi
		Bilimlar:
		Texnik chizmalar va sxemalar nazariyasi
		Montaj va ta'mirlash texnologiyasi asoslari
		Texnik shartlar va spetsifikatsiyalar
		Ishlatiladigan materiallarning xususiyatlari, chidamliligi va muvofiqligi
		Mehnat muhofazasi va xavfsizlik qoidalari
